

UO'T 528.46.004:043

**AGROKLASTERNI BOSHQARISH BO'YICHA XORIJ TAJRIBALAR.**

**Sattorov Shahzod Yarashovich**

*TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti*

*Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari kafedrasi dotsent v.b.*

*E-mail: [shsattorov1993@mail.ru](mailto:shsattorov1993@mail.ru)*

**Sulaymonov Mirjon Valijonovich**

*Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari kafedrasi doktoranti*

**Ochilov Askar Boymurodovich**

*Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari kafedrasi tadqiqotchisi*

**Jo'raqulov Fazliddin Faxriddinovich**

*Geodeziya va geoinformatika ta'lif yo'nalishi talabasi.*

**Teshayev Hasan Murtazoyevich**

*Geodeziya va geoinformatika ta'lif yo'nalishi talabasi.*

**Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasi agroklasterlar hududini tashkil etish va boshqarish bo'yicha xorijiy tajriba va ularni masalalari, yer munosabatlarini bozor sharoitiga moslash, yer mulkini davlat tasarrufidan chiqarish va modernizatsiyalash bo'yicha ma'lum tadbirlarni amalga oshirib kelinmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlarining tarkibiy o'zgartirishlari, o'z navbatida yer islohotlari o'tkazishni zaruriyati to'g'risida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Yer uchastkasi, agroklaster, hudud, tajriba, xorijiy, yer munosabatlari, yer resurslar, elektron dastur, mamlakat.

So'nggi elliq yil ichida dunyoda keskin texnologik o'zgarishlar ro'yberdiki, natijada yangi texnologiyalarning amaliyatga joriy qilinishi tobora ularning o'zaro bog'liqligi bilan ahamiyatlidir (mikro elektronika, nanotexnologiya, telekommunikatsiya, kompyutyerlar va boshqalar). Mazkur texnologiyalar o'z navbatida innovatsion jarayonlarning yangi shakllaridan foydalanishni taqozo qilmoqdaki, buning uchun ko'plab mamlakatlarda milliy sanoatni rivojlantirishga yo'naltirilgan siyosatni amalga oshirishda klasterli yondashuvdan keng foydalanilmoxda. Klasterli yondashuv avvalo yangi boshqaruv texnologiyasi bo'lib, alohida hududlar, tarmoqlar va /yoki davlatlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda sanoati rivojlangan ko'plab mamlakatlarda klasterlarning yuqori ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini belgilaydigan ko'plab misollar keltirish mumkin. Yevropaning ayrim davlatlarida muhim sanoat klasterlari tashkil etilgan, masalan, Germaniyada kimyo va mashinasozlik tarmoqlarida, Fransiyada oziq-ovqat va kosmetika ishlab chiqarishda. Daniyada bugungi kunda 29 ta yetakchi klaster faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularning aksariyati qishloq xo'jaligida tashkil

etilgan. Finlyandiyaning iqtisodiyoti klasterlashtirish siyosatiga asoslangan bo'lib, 2000 yildan buyon klasterlarning yuqori samaradorligi hisobiga jahonda raqobatbardoshlik bo'yicha yetakchilikni egallab kelmoqda. Mazkur mamlakat dunyobo'yicha 0,5 foizo'rmonresurslarigaegabo'lsada, unga dunyo bo'yicha daraxtdan qayta ishlangan mahsulotlar eksportining 10% va qog'oz mahsulotlarining 25% i to'g'ri keladi. Telekommunikatsiya bozorida mobil aloqa vositalari eksportining 30%i uyali telefonlar eksportiga to'g'ri keladi.

Jahon iqtisodiyotida so'nggi o'nyillikda klasterlarning faol rivojlanishi kuzatilmoxda va bunday faollik deyarli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning yarmiga to'g'ri kelmoqda. Masalan, AQSHda mavjud korxonalarining yarmi klasterlarga jalbqilingan bo'lib, ulartomonidan ishlab chiqilgan YaIM 60%ni tashkil etgan. Yevropa Ittifoqi davlatlarining 38% ishchi kuchi klasterlarda mujassamlangan. Norvegiya, Shvesiya va Daniya iqtisodiyoti deyarli to'liq klasterlar bilan qamrab olingan. Tahlil ma'lumotlariga ko'ra, 2013 yilda milliy iqtisodiyotda tashkil etilgan klasterlarning soni bo'yicha yetakchilik AQSHda - 380ta klaster, Buyuk Britaniyada 168ta klaster, Italiyada 206ta klaster tashkil etilgan.

Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish davlat dasturlari qabul qilinmoqda va amalga oshirilmoqda. Jumladan, bunday dasturlar Yevropa Ittifoqining deyarli barcha mamlakatlarida ishlabchiqilgan va ulardan amalda foydalanilmoqda. Ushbu borada klasterlarning shakllanishi dadavlatning urni va rolini ham alohida o'rganish maqsadga muvofiqdir, zero, bizga yaxshi ma'lumki, dastlab klasterlarning shakllanishi va rivojlanishi bosqichlarida Transmilliy korporatsiyalarning urni va roli yuqori bo'lgan bo'lsa, so'nggi yillarda ko'plab mamlakatlarda (iqtisodiyoti rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda) hukumatlar tomonidan davlat-xususiy hamkorligi doirasida ularni tashkil etish va qo'llab-quvvatlashga hartomonlama ko'mak berilmoqda. Xorijiy mamlakatlarda klasterlarni rivojlantirish dadavlat tomonidana malga oshirilayotgan choratadbirlardan biri infratuzilmani shakllantirish hisoblanadi. Fransiyada Rejalashtirish milliy agentligi (DATAR), Luksemburgda klasterlarni izlash va tizimlashtirish axborot tizimi (CASSIS), AQSHda Milliy raqobatbardoshlik kengashi, Buyuk Britaniyada koopyeratsiya dasturi (LINK) va boshqalar[20]. Klasterlarni milliy iqtisodiyotdari vojlantirish maqsadida ayrim mamlakatlarda amalga oshirilayotgan isloxtlarni tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

AQSHda. 2009 yilda Barak Obama AQSH Kongressidagiilk ma'ruzasida millatning barkarorligini ta'minlashda innovatsion strategiyani amalga oshirishning dolzarbligini belgilagan. Jumladan, hududlar miqyosida klaster strategiyasi asosida yirik va kichik korxonalar, universitetlar, moliyaviy tashki-lotlar o'rtasidagi aloqadorliklarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash muhimligi to'g'risida fikr

bildirgan va 2010 yilgi budjet mablag‘lari hisobidan hududiy innovatsion klasterlar va biznes-inkubatorlarniri vojlantirish uchun 100 mlrd AQSH dollari ajratilishini milliy iqtisodiyotning istiqboldagi raqobatbardoshligini belgi-lovchi omillardan biri sifatida belgilagan. Ushbu ma’ruzadan so’ng ayrim mutaxassislarining fikrlariga ko’ra, hududiy klasterlarning davlat miqyosida qo’llab-quvvatlanishi ilk bor anamoyon bo’ldi, zeero, mazkur masalalar hududiy hokimiyat miqyosida halqilinishi belgilangan. Chunki klasterlarni rivojlanish borasida Federal hukumatning shtatlarda amalgalashish oshirilayotgan siyosatga bevosita aralashish vakolatlari belgilanmagan. Ammo mutaxassislarining qayd qilishicha, so’nggi 3-4 yil ichida mazkur munosabatlar hukumatning markaziy dasturlariga kiritilgan va bunda aniq tarmoqlar (elektronika, internet) yoki alohida universitetlar va ilmiy-tadqikot muassasalari belgilanadi.

Bu kabi chora-tadbirlar Yevropa Ittifoqi davlatlarida ham kuzatilgan, chunki klaster asosida rivojlanish strategiyasi hududning innovatsion rivojlanishini ta’minlovchi muhim instrument sifatida qurilgan. Tadbirkorlik va sanoat siyosati uchun mas’ul bo’lgan Yevropa komissiyasi vitse-prezidenti Gyuntyer Vyerkujenning ta’kidlashicha, «Yevropa Ittifoqining jahon miqyosidagi ko’plab klasterlarga ehtiyoji yuqori. Ular firmalarimizning innovatsion rivojlanishi va yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim hayotiy vazifani bajaradi».

Tadqiqotlarga ko’ra bugungi kunda klasterlarni qo’llab-quvvatlashda davlatning siyosati milliy iqtisodiyotni rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqadi, natijada u turli shakllarda bo’lishi mumkin:

- budjeti va rivojlanish strategiyasi belgilangan, birnechta sanoat tarmoqlarini o’zida mujassamlashtirgan anikshakllantirilgan siyosat;
- klasterlarning ma’lum jihatlarini rivojlanishga yo’naltirilgan siyosat: tarmoqdagi aloqadorliklar yoki biznes va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan aloqadorlikni shakllantirishga yo’naltirilgan va boshqalar.

Klaster bilan bog’liq bo’lgan islohotlarda muhim rolni universitetlar amalgalashish uchun belgilangan, bunda ishlanmalar va texnologiyalar sanoat tarmog’iga uzatilishi AQSH qonunlarida aniq aks ettirilgan. Muhimi, mazkur hamkorlikda raqobat muhitini ham shakllantirilgan, ya’ni xususiy sektor tomonidan amalgalashish uchun belgilangan.

Kanadada ham klasterlarni tashkil etish, qo’llab-quvvatlash va rivojlanishning boy tajribasi to’plangan. Jumladan, tashkil etilgan va mashxur bo’lgan biotexnologiya klasteri (Monreal, Toronto, Vankuyer, Ottava, Galifaks); axborot-texnologiyalari klasteri vinochilik klasteri (Niagara), oziq-ovqat klasteri (Toronto) va boshka klasterlarni misol kilib keltirish mumkin. Kanada iqtisodiyotida klasterlarni rivojlanishda boshqaruv hokimiyatining barcha pog’onalari ko’maklashishga safarbar qilingan - fedyeral, hududiy va munitsipal. Shu bilan birga klaster strategiyasi

mamlakatning milliy innovatsion strategiyasining bir qismi hisoblanadi. Mazkur strategiyani muvofiqlashtirish Milliy tadqiqot kengashi - ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishning yetakchifederal agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Undan tashqari, Kanada hukumati tomonidan federal vakolat doirasida klasterlarga investitsiyalarni jalg qilish, tashki bozorlarga mahsulotlarni siljitishtida ko'maklashish, mehnat bozorini tartibga solish, muvaffaqiyatlari ilmiy-tadqiqotlarga investitsiyalarni yo'naltirish, ta'lim dasturlarini yaratish, intellektual mulkni himoya qilish va boshqalar.

Germaniya ham sunggi yillarda AQSH singari, klasterlarni tashkil etishva rivojlantirish borasidagi hukumat tomonidan e'tibor Germaniyada ham kuzatilgan. Amaliyatda, Germaniya hududlarida klasterlarning rivojlanishi davlat hokimiyatining aralashuviz amalga oshirib kelingan bo'lsa, 2003 yildan boshlab hukumat tomonidan yuqori texnologiyalarni rivojlantirishga asoslangan klasterlarni qo'llab-quvvatlashga e'tibor berilmoqda, ayniqsa, sanoat va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan aloqadorlikni rivojlantirish va moliyaviy ta'minotni nafaqat hududiy, balki federal manbalari hisobidan ta'minlash borasida chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Islohotlarning biri natijasida Germaniyaning Rur hududi og'ir sanoatga ixtisoslashgan bo'lib, bugungi kungda axborot texnologiyalariga ixtisoslashtirish rejallashtirilgan. Shuningdek, yuqori samaradorlikka erishgan Baden-Vyurtembyergedagi avtomobilsozlik klasteri, Tutlingenedagi tibbiyot uskunalar klasteri, Drezdendagi chiplar ishlab chiqarishklasteri va Byerlin-Brandenburgdagi biotexnologiyalar klasterini misol qilib keltirish mumkin.

Mutaxassislarining belgilashicha, albatta ko'plab klasterlar tomonidan yuqori darajadagi samaradorlik va raqobatbardoshlikka erishilmagan bo'lsa ham, yetakchilikni qo'lga kiritish borasidagi faoliyatları amalga oshirilmoqda. Klasterlarning istiqbolda rivojlanishi va yuqori samaradorligiga bevosita ilmiy-tadqiqotlar, ilmiy salohiyatning mavjudligi va ilmiy-tadqiqot institutlarining faolligi ta'sir ko'rsatadi. Bunda davlat tomonidan ilmiy-tadqiqot institutining faoliyat doirasi belgilanadi, zaruriy vakolatlar va anjomlar bilan ta'minlanadi. Germaniya professorlari ko'p hollarda ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanishadi, ilmiy-tadqiqot muassasalari uz navbatida xususiy firmalar bilan o'zaro aloqadorligi o'rnatilgan. Universitet hududida professorlar uchun mustaqil yuridik shaxs maqomi bilan xususiy ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish imkoniyati ham yaratilgan.

2005 yilda Fransiya hukumati tomonidan milliy klaster siyosatini amalga oshirish boshlangan bo'lib, ustuvor vazifa sifatida 15-20 yil ichida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarining raqobatbardoshligini ta'minlash belgilangan. 2006-2008 yillarda 66 ta klaster, jumladan 16 ta innovatsion klasterni qo'llab-quvvatlash uchun 1,5 mlrd yevro miqdorida mablag' sarflangan. Fransyaning klaster siyosati uchta muhim bug'inni

o'zaro bog'lashga qaratilgan. Bular: biznes, ilmiy omma va ta'lif muassasalari. Ko'phollarda ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarni amalga oshirish uchun xorijiy kompaniyalar jalg qilinadi. Jumladan, mikro va nano-tehnologiyalarga asoslangan «Minalogic» klasterining «Foremost» loyihasi doirasida yuqori darajadagi mikrochiplarni yaratish uchun 8 ta davlatdan 24 ta hamkor bilan aloqalar o'rnatilgan.

Qozog'istonda yirik sanoat korporatsiyalari tarkibida klaster tuzilmalarini tashkil etish bo'yicha qator chora-tadbirlar qurilmoqda. 2004 yilda Kozog'iston prezidenti tomonidan milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishning asosiy usullaridan biri sifatida e'lon qilingan. Ushbu yildan Kozog'istonning AO «Sentr marketingovo-analiticheskix issledovaniy1» AQSHning «JE Austin» konsalting kompaniyasi hamkorligida iqtisodiyotning amaldagi va istikboldagi tarmoqlarining rakobatbardoshligi taxlili amalga oshirilgan. Pirovard maqsad mamlakatda klasterlarni tashkil etishga qaratilgan.Ushbu loyiha klasterning targ'ibotchilaridan biri Maykl Portyer rahbarlik qilgan.Tadqiqotlar natijasida metallurgiya, neft-gaz, mashinasozlik, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati, qurilish materiallari sanoati, turizm, transport logistikasida klasterlaridir.

Nidyerlandiya: - tijorat investitsion hududini tashkil qilishda loyihami amalga oshirish; - milliy darajada «Innovatsion platformaning yaratilishi» yuqori texnologik tarmoqlar va innovatsion klasterlarni qo'llab-quvvatlash; - «Breynport» maxsus yuqori texnologik hududning tashkil etilishi; - qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati kompaniyalari uchun jozibador sharoitlar yaratish («Oziq-ovqat vodiysi») AK.Sh: - faolravishda texnoparklarning yaratilishi; - hududiy texnologik alyanslarni tashkil etish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha dasturlarni ishlab chiqish va qo'llash; - innovatsiyalar va innovatsion klasterlarni investitsiyaviy qo'llab-quvvatlash; - Kaliforniyada yuqori texnologik innovatsion hududning tashkil etilishi.

O'zbekistonda fermer xo'jaliklarini tashkil etish va uni rivojlantirish borasida islohotlar dastlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991 yil 29 dekabrdagi "Dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada mustahkamlash va respublikada ishbilarmonlik faoliyatini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 30 dekabrdagi 315-son "Respublikadadehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash choralari haqida"gi Qarori ishlab chiqilishi bilan boshlandi. O'tgan davr mobaynida fermerxo'jaliklari to'liq shakllandi va rivojlanib bormoqda. Mamlakatimizda buborada muayyan darajada tajriba orttirildi. Biroq, ta'kidlash joizki, aksariyat xorijiy davlatlarda fermer xo'jaliklari tashkil etilganiga bir asrdan ortiq vaqt bo'lgan va ularda bu sohada boy tajriba to'plangan. Mazkur davlatlar tajribalaridan respublikamiz fermerlik harakatini yanada rivojlantirishda qo'llash, ularni xo'jalik yuritish faoliyatlariga tadbiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSH)da fermer xo'jaligi

rivojlanganligining asosiy xususiyati yuqorida rejada ixtisoslashganligi va mexanizatsiyalashganligi hisoblanadi. Shu bois, bunday xo‘jaliklarda, odatda, fermer va uning oilasi, ba’zan bir-ikkita qo‘sishimcha yollanma ishchi mehnat qiladi. Tabiiy sharoitiga bog‘liq holda fermer xo‘jaliklari soni shtatlar darajasida turlicha taqsimlangan. Xusan, eng ko‘p fermerlar Texas, Missouri, Ayova shtatlarida faoliyat olib borsa, ayni vaqtida, shimoli-sharqda joylashgan Konnektikut va Delavyerde ularning soni nisbatan kam.

AQSH statistikasida mahsulotini bir yilda 1000 dollardan ortiqqa sotgan fermer xo‘jaliklari hisobga olinadi, 250 ming dollardan ko‘p mahsulot realizatsiya qilganlari yirik, undan kam bo‘lsaki xo‘jalik sifatida qayd etiladi. Jami fermer xo‘jaliklari mahsulotlarini 80,0 foizi yirik xo‘jaliklarda ishlab chiqariladi. Xo‘jaliklar katta bo‘lsa ham, kichik bo‘lsa ham, asosan, bitta oila faoliyat olib boradi. 1950 yilga qaraganda AQSH fermer xo‘jaliklarining o‘rtacha hajmi 2,1 martaga oshgan, ya’ni 87,0 hektardan 187,0 hektarga etgan va bu jarayon keyingi yillarda ham davom etmoqda. Xo‘jaliklarning asosiy qismi 20 hektargacha (30 %) va 70-200 hektaroraliq‘ida (25 %) shakllangan. Demak bu mamlakatda yirik xo‘jaliklar bilan birgalikda kichik xo‘jaliklar ham samarali faoliyat olib bormoqda.

AQSHda so‘nggi yillarda yerlarni ijaraga olish kengt arqalmoqda. Ijarachi sifatida, asosan, fermerlar xizmat qiladi. Ammo, ba’zi shtatlarda ijarachi shaharda yashovchi, qishloq xo‘jaligi sohasidan mutlaqo xabari yo‘q kishilar ham bo‘lishi mumkin. Ijaraga 15 hektardan 35 hektargacha yer beriladi. Bir hektar lalmi yerlar narxi 180, sug‘oriladigan yerlar 350, yaylovlar esa 23 dollar atrofida. Aytib o‘tish joizki, mamlakatda jami mehnatga yaroqli aholining 2,5 foizi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida band .

Kanada qishloq xo‘jaligi rivojlanishida ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va mujassamlashtirishga alohida e’tibor qaratiladi. Buyerda ham fermer xo‘jaliklari soni kamayib, bir xo‘jalikka to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha yer maydoni ortib bormoqda va bu jarayon oxirgi yillarda nisbatan barqarorlashgan. Hozirgi vaqtida xo‘jaliklarning o‘rtacha maydoni mamlakat bo‘yicha 211,2 hektar, shujumladan, haydaladigan yerlarda 143,2 hektarni tashkil etmoqda. Mazkur davlatda sabzavot mahsulotlari 40 hektargacha, g‘alla 80 hektardan 300 hektargacha yerga ega fermer xo‘jaliklarida yetishtiriladi. Fermerlarning asosiy qismi makka jo‘xori, bug‘doy va soya yetishtirish bilan shug‘ullanishadi. Shuningdek, ushbu xo‘jaliklarda chorvachilik ham yaxshi taraqqiy etgan. Kanadada yerdan foydalanishning ikki shakli mavjud: xususiy va ijara. Xususiy foydalanishga 42,3 mlnga yer biriktirilgan bo‘lsa, 9,2 mlnga yerni fermerlar davlatdan ijaraga olib faoliyat olib boradi.

Yevropa mamlakatlarida fermer xo‘jaliklarining maydoni 10 hektardan 60 hektargacha, bir xo‘jalikda boqiladigan yirik shoxli qoramollar 30-300 bosh, cho‘chqalar 50 boshdan 100 boshgacha farqlanadi. Bunday hududiy tafovutlarning

yuzaga kelishiga joylarning yem-xashak bazasi ta'sir etgan. Ularda fermer xo'jaliklarining o'rtacha yer maydoni 13,9 hektar bo'lib, ayni vaqtida, mamlakatlar bo'yicha bu ko'rsatkich bir-biridan farq qiladi. Masalan, Britaniyada fermer xo'jaligining o'rtacha yer hajmi 80,4 hektarga, Danyada 30,7, Fransiyada 29,0, Irlandiyada 22,7, Gyermaniyada 18,0, Gollandiyada 14,9, Belgiyada 14,1, Italiyada 10,8, Gresiyada 4,3 hektarga teng. Keyingi o'rinnarda Skandinaviya davlatlari turadi, ularning fermerlari nisbatan kichik yerlardan foydalanadi. Shu bilan birga, ushbu davlatlarda qishloq xo'jaligini intensivlashtirish natijasida nisbatan kichik xo'jaliklar yirik fermer xo'jaliklariga qo'shilib ketishi yuz bermoqda. Chunonchi, Gyermaniyada 1970-2000 yillarda fermerlar soni yiliga o'rtacha 1,2 foizdan kamaygan. Bir fermer xo'jaligiga o'rtacha 18,0 gayerva 16 ishchi, 28 bosh qora mol to'g'ri keladi, bir sigirdan o'rtacha 7300 kg sut olinadi.

Shvesiya fermer xo'jaliklari asosiy qismining o'rtacha yer hajmi 20-40 hektar bo'lib, ularning har biriga o'rta holda 70 bosh qora mol va 60 bosh qo'y mos keladi. Bu mamlakatda sut yetishtirishga ixtisoslashgan xo'jaliklarda sog'iladigan sigirlar sonining eng maqbuli 25-38 bosh va ulardan 6500-7500 kg sut sog'iladi. Bir xo'jalikda o'rtacha 4 kishi mehnat qiladi. Angliya fermer xo'jaliklarda mehnat qilayotgan bir ishchiga 36,6 t g'alla, 25,5 t sut va 5,7 t go'sht to'g'ri keladi va ushbu mamlakat bu jihatdan, ya'ni mehnat unumдорлиги bo'yicha jahonda oldingi o'rinnarni egallaydi. Gollandiya dunyoda qishloq xo'jaliqi rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi. Ushbu mamlakat fermerlari 5 gektardan 30 gektargacha bo'lgan yer maydonida mehnat qilishadi. Bu yerda seleksiya va naslchilikka alohida e'tibor qaratiladi. Fermer xo'jaliklarini mineral o'g'itlar va yem-xashak bilan ta'minlashda ilg'or texnologiyalar qo'llanadi, bu esa xo'jaliklarning bozor talablariga tez moslashishi va raqobatbardosh mahsulotlarni tayyorlashiga imkoniyat yaragan.

Finlandiyada fermer xo'jaliklari soni 200 mingdan ortiq, o'rtacha maydoni 13 ga, shuningdek, 30 gektardan ijaraga yer oladi. Har bir fermerda o'rta hisobda bitta kombayn, ikkita traktor, 35 ta yirik shoxli qoramol, 100 bosh cho'chqa mavjud. Xo'jaliklarning 1/3 qismi sutga ixtisoslashgan bo'lib, ko'pchiligi ijaraga olingan yerlarda yetishtirilgan yem-xashak bazasi asosida shaxsiy molxonalarda boqiladi [28].

Daniya qishloq xo'jaligida fermerchilik yaxshi yo'lga qo'yilgan. Mamlakat fermerlarining 15 mln aholini boqishga imkoniyati bor. Mulkchilikning ushbu shaklida yetishtirilgan mahsulotlar dunyoning 175 ta mamlakatiga eksport qilinadi. O'rtacha bir xo'jalikka 50 gektar yer maydoni, bosh yirik shoxli qoramol, 2 ming cho'chqa parvarish qilinadi. Bir sigirdan 7500 kg sut olinadi va sut mahsulotlarining 80 foizi eksportga yo'naltiriladi. Daniya fermer xo'jaliklari tor ixtisoslashgan bo'lib, asosan, parrandachilik, yirik shoxli qoramolchilik, cho'chqachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanishadi. Eng ko'p ishlab chiqaradigan agroiqtisodiyot mahsuloti sut va cho'chqa go'shti. Qizig'i shundaki, bu yerda fermer xo'jaliqi yerlariga egalik qilish

(sotib olish) uchun kamida 5 yillik maxsus kasbiy tajriba talab etiladi. Agrosanoat majmuasida 141,0 ming kishi yoki jami mamlakat aholisining 4,0 foizi band.

Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, iqtisodiyoti rivojlangan malakatlarda fermer xo‘jaliklari agrar sohaning eng samarali shakli hisoblanadi. Bunday mamlakatlarda fermerchilik ko‘proq oila mehnatiga asoslanadi. Ko‘pchilik xorijiy davlatlarda fermer xo‘jaliklari ixtisoslashuvini chuqurlashtirish, ishlab chiqarish mujassamlashuvini oshirish, ilg‘or tajribalarni qo‘llash va intensivlashtirish asosida xo‘jaliklar yiriklashib bormoqda. Iqtisodiyoti o‘tish davriga xos bo‘lgan mamlakatlarda ham fermerchilikning bunday rivojlanishi katta ahamiyatga ega. Xususan, sobiq Ittifoq respublikalarida mulkchilikning ushbu shakli iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda fermerx o‘jaliklari yer maydonlarini belgilashda (optimallashtirishda) qator munozarali holatlar yuzaga kelmoqda. Bu sohada ham xorijiy, shu jumladan, MDH davlatlari tajribasini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mamlakatlarda fermer xo‘jaliklarining yer maydonlari 1 hektardan (Armaniston) 50 hektargacha (Ukraina, Belorussiya, Rossiya) o‘zgaradi. Binobarin, Rossiya “Dehqon (fermer) xo‘jaliklari to‘g‘risida”gi Federal Qonuniga muvofiq, bunday xo‘jaliklar alohida oila, bir necha oilalar guruhi va oiladan tashqaridagilar bilan birgalikda ham tashkil etiladi va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Ushbu davlat agrar iqtisodiyotida bugungi kunda mazkur mulkchilik shaklining ahamiyati ortib bormoqda. Xususan, so‘nggi 15 yil ichida ularning soni 5 martaga ko‘paygan. Ayniqsa, bu ko‘rsatkich chorvachilikda juda tez o‘sib borgan.

Rossiya statistik ma'lumotlariga ko‘ra, mamlakatda dehqon (fermer) xo‘jaliklariga biriktirilgan yer maydoni 2000 yilda 6,5 mln ga, 2005 yilda 11,9 mln ga, 2010 yilda 15,6 mln gava 2014 yilda 18,0 mln hektardan ortiqni tashkil etgan. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 2005 yil 20,0 %, 2010 yil 23,7 foizi fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan. Oltoy o‘lkasida bu ko‘rsatkich nisban yuqori, mos ravishda, 24,0-37,6 % .

Belorussiya qishloq xo‘jaligida ham turli mulkchilik shakllarini vujudga keltirishga e’tibor qaratilayotgan bo‘lsada, biroq agrar ishlab chiqarishning yangi shakli dehkon (fermer) xo‘jaliklari hisoblanadi. Respublikada dastlab 1991 yilda qabul qilingan “Dehkon (fermer) xo‘jaliklari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq bir xo‘jalikka biriktirilgan eng katta yer maydoni 50 hektarni tashkil etgan. 1998 yildan boshlab Respublika Prezidentining Farmoniga muvofiq fermer xo‘jaligi yer hajmining eng yuqori chegarasi 100 ga etib belgilangan.

Hozirgi paytda, Belorussiyada 2,8 ming fermer xo‘jaliklari mayjud va ularga 157,5 ming hektar maydon biriktirilgan. Bu esa, jami qishloq xo‘jalik yerlarining 1,8 foizini tashkil etadi. Bitta fermerga o‘rtacha 56,2 ga yer mos keladi. Fermerchilik mahsulotlarini yetishtirishda o‘sish kuzatilmoxda. Jumladan, so‘nggi 20 yilda

kartoshka yetishtirish 5 marta, sabzavot qariyb 15 martaga ko‘paygan. Shuningdek, go‘sht va sut ishlab chiqarish ham ortib borgan. Belorussiyada fermer (dehqon) xo‘jaliklari ixtisoslashuviga ko‘ra ikki yo‘nalish ajratiladi: ko‘p tarmoqli va tor ixtisoslashgan xo‘jaliklar. Jami fermerlarning deyarli yarmi dehqonchilikka, 20 foizdan ortig‘I chorvachilikka yo‘naltirilgan, qolgan qismi ko‘p tarmoqli hisoblanadi. Ushbu mulkchilik shaklida hosildorlik g‘allachilikda 31,4 s/ga, kartoshkachilikda 214 s/ga, sabzavot yetishtirishda 292 s/gani tashkiletmoqda.

Ukrainada ham qishloq xo‘jalik faoliyatini yuritishning eng samarali shakli fermerchilikdir. Buyerda fermerlarga 3 mln gektardan ortiq yer biriktirilgan bo‘lib, umamlakat umumiy maydonning 7,5 foizini tashkil etadi. 2005 yildan boshlab fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan mahsulotlarni realizatsiya qilish yiliga 30-35 foizga oshib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda tadqiqotlar ko‘rsatishicha, aksariyat xorijiy mamlakatlarda fermer xo‘jaliklari taraqqiyoti, asosan, quyidagi omillarga bog‘liqligi aniqlandi:

- fermer xo‘jaliklarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash
- mexanizmini samarali tashkil etish;
- fermer xo‘jaliklari bilan bog‘liq huquqiy-me’yoriy asoslarni takomillashtirish;
- fermerlarni qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta’minlash va eskirganlarini yangilab borish;
- fermerlarga ajratilayotgan kredit stavkalarini pasaytirish va imtiyozli soliq tizimini joriy yetish;
- axborot, xizmat ko‘rsatish va qayta ishslash sohalarini yanada rivojlantirish.

### **Adabiyotlar ro’yxati.**

[1] Global Iqlim O’zgarishi O’zbekistonning Barqaror Rivojlanishiga Salbiy Ta’siri. SS Yarashovich, AJ Saytkulovich, AI Hasan o’g’li... - O’zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va , 2023

[2] Sattorov Sh Y, Ahmadov S O, Akhtamov S A 2021 Mechanisms of rice growing and rice development in Uzbekistan *online-conferences* 5 183

[3] Sattorov S Y 2020 Use of aerocosmic methods and gis programs in construction of space data models of pastural land *Current scientific research in the modern world*

[4] Abduloev A M 2020 The use of advanced technologies in geodetic and geoinformatics *Journal agro processing*

[5] Sattorov S. Y., Muhammadov Q., Bobojonov S. QURILISH JARAYONIDA ELEKTRON TAXEOMETRLARLARNI O ‘RNI //Euro-Asia Conferences. – 2021. – T. 5. – №. 1. – C. 235-237.

[6] Сатторов Ш.Я, Мухаммадов К., Бобоҷонов С. ҚУРИЛИШ ЖАРАЁНИДА ЭЛЕКТРОН ТАХЕОМЕТРЛАРЛARNI O ЎРНИ //Эуро-Асиа Конференсес. – 2021. – Т. 5. – №. 1. – С. 235-237.

[7] Сатторов Ш. Я. и др. USE OF AEROCOSMIC METHODS AND GIS PROGRAMS IN CONSTRUCTION OF SPACE DATA MODELS OF PASTURAL

LAND //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2020. – №. 5-4. – С. 16-22.

[8] Сатторов Ш. Я. ЯЙЛОВ ЕРЛАРИНИНГ ДЕГРАДАЦИЯ ОМИЛЛАРИ //ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ. – 2020. – №. SPECIAL ISSUE.

[9] Абдуллоев, А. М. (2020). ГЕОДЕЗИК ВА ГЕОИНФОРМАТИК ИШЛАРНИ БАЖАРИШДА ИЛГОР ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, (SPECIAL ISSUE).

[10] Muzaffarovich, Abdulloyev Ashraf. "USE OF ADVANCED TECHNOLOGIES IN GEODESIC AND GEOFORMATIC WORK." *Агропроцессинг* SPECIAL (2020).

[11] Ашраф, Мудасир, Ясс Худхейр Салал и С.М. Абдуллаев. «Интеллектуальный анализ образовательных данных с использованием базового (индивидуального) и ансамблевого подходов к обучению для прогнозирования успеваемости учащихся». *Наука о данных*. Спрингер, Сингапур, 2021. 15–24.

[12] [Geoportal visualization of state cadastre objects:\(a case study from Uzbekistan\)](#) A Inamov, S Sattorov, A Dadabayev, A Narziyev - IOP Conference Series: Earth and Environmental , 2022

[13] [Conventional and current approaches of urban mapping and geodetic base formulation for establishing demographic processes database: Tashkent, Uzbekistan](#) S Abdurakhmonov, M Khamidova, Y Romanyuk - E3S Web of Conferences, 2024

[14] Yarashovich S. S., Faxriddinovich J. F. KARTAGA OLISHDA ZAMONAVIY METOD VA TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI //Ustozlar uchun. – 2024. – Т. 58. – №. 2. – С. 105-109.

[15] Yarashovich S. S., Faxriddinovich J. F. GEOMA'LUMOTLAR BAZASIDAGI MAVZULI QATLAMLARNING ATRIBUTIV JADVALLARINI ALGORITMGA BOG 'LASH //Ustozlar uchun. – 2024. – Т. 58. – №. 2. – С. 99-104.

[16] Yarashovich S. S., Faxriddinovich J. F. AEROKOSMIK METOD YORDAMIDA MELIORATIV MONITORING QILISH VA KARTASINI ISHLAB CHIQISH //Ustozlar uchun. – 2024. – Т. 58. – №. 2. – С. 110-115.

[17] Yarashovich S. S., Faxriddinovich J. F. DALA TADQIQOT NATIJALARINI GEOMA'LUMOTLAR BAZASIGA INTEGRATSIYALASH //Ustozlar uchun. – 2024. – Т. 58. – №. 2. – С. 93-98.

[18] Yarashovich S. S., Faxriddinovich J. F. KOSMOSURATLARDAN FOYDALANIB ELEKTRON RAQAMLI KARTALARNI YANGILASH //Journal of new century innovations. – 2024. – Т. 54. – №. 4. – С. 14-18.